

“EKINZORLARNI, O’RMONLARNI, DARAXTLARNI VA BOSHQA O’SIMLIKLARNI SHIKASTLANTIRISH YOXUD NOBUD QILISH UCHUN JINOIY- JAVOBGARLIKNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”

Bahodirov Domullojon Baxtiyorzoda

M.S.Vosiqova nomidagi yuridik litsey “Huquqiy fanlar” kafedrası katta o’qituvchisi

Telefon: +998(90)837-71-70 bakhodirovdadakhon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18548715>

Annotatsiya. Atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Jamiyat hayoti tabiiy resurslarni qazib olish va faoydalanish tabiatning doimiy o’zgarishi bilan uzviy bog’liqdir. Insonning atrof-muhitga bunday ta’siri har doim ham foydali va xavfsiz emas va ko’pincha dahshatli nisbatlarga etib boradi va butun insoniyatning biologik tur sifatida mavjudligiga tahdid soladi. Shu munosabat bilan jamiyatning vaziyatni o’z nazoratiga olishga, jinoyat va ekologiya qonunchiligi buzilishiga tegishli tashkiliy-texnik va huquqiy to’siqlar qo’yishga, tabiiy resurslardan foydalanish tartibini o’rnatish qat’iy yondashuv bo’lishi tahsinga sazovordir.

Kalit so’zlar: ekinzor, o’rmonlar, ekologiya, jinoyat, ekologik huquqbuzarlik, ekologik javobgarlik, nobud qilish, payhon qilish.

Asosiy qism. Statistik ma’lumotlarga asosan, o’rmonlar sayyoramizdagi quruqlikning qariyb uchdan bir qismini egallaydi. Ular, shuningdek, inson salomatligi uchun juda muhim, suv va havoni tozalaydi va yangi yuqumli kasalliklarga qarshi birinchi himoya chizig’i bo’lib xizmat qiladi.¹ 2024-yilgi ma’lumotlarga asosan 2023-yilgi davrga nisbatan 6474970 gektar (ga) yashil maydon yo’q bo’lib ketgan va bunga asosiy sabab sifatida sanoatda foydalanishda, yangi yo’llar barpo etishda avtomobil yo’llarini qurish, shuningdek chorvachilikning rivojlanishi va buning natijasida ekin maydonlari sezilarli darajada yo’q bo’lib ketishiga olib kelgan. Demak, yashil makonning hozirda inson yashash tarzidagi ahamiyatini hisoga olgan holda, asrab avaylash barchamizning birdek asosiy vazifalarimizda biri bo’lishi lozim.

Ekinzorlarni, o’rmonlarni, daraxtlarni va boshqa o’simliklarni jinoiy tajovuzlardan qo’riqlash amaldagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat Kodeksi normalarida mustahkamlab qo’yilgan. Jinoyat kodeksining 2-moddasiga asosan, Jinoyat kodeksining asosiy vazilaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish hisoblanadi.² Bevosita ekinzorlarni, o’rmonlarni, daraxtlarni va boshqa o’simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish uchun jinoiy-javobgarlik esa Jinoyat kodeksi 198-moddasida belgilab qo’yilgan. Ochiq manbalardagi e’lon qilingan xabarlarga ko’ra, 2025-yilning dastlabki choragida 15 nafar shaxs yuqorida ko’rsatib o’tilgan huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun jinoiy-javobgarlikka tortilgan.³

Sodir etilgan qilmishni huquqbuzarlik sifatida baholash uchun Jinoyat Kodeksi 16-moddasiga asosan, qilmishda huquqbuzarlik tarkibi mavjud bo’lishi lozim. Professor M.X.Rustamboyevning ta’kidlashicha, jinoyatning bevosita asosiy obyekti o’rmon, ekinzor va boshqa dovdaraxtlarni atrof tabiiy muhitning tabiiy qismi va boyligi sifatida ulardan tegishli darajada foydalanish yo’li bilan saqlashni ta’minlash sohasida yuzaga keladigan va

¹ <https://www.worldwildlife.org/threats/deforestation-and-forest-degradation>

² O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi

³ <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

shakllanadigan ijtimoiy munosabatlardir.⁴ Shuni qo'shimcha qilish lozimki, ko'rsatib o'tilgan qilmishni sodir etilganligidan so'ng nafaqat yuqorida ko'rsatib o'tilgan obyektga, balki o'zga shaxsning mulkiy huquqlariga ham zarar yetkazilishi mumkin. Masalan, keng bog'ga ehtiyotsizlik sabab olov kelib chiqishi natijasida, bog' egasining mavjud daraxtlardan meva olishga va foyda ko'rish bilan bog'liq mulkiy tusdagi huquqlariga ham zarar yetkazilishi mumkin. Demak, bundan shuni anglashimiz mumkinki, shaxsning mulkiy huquqlari ham bevosita qo'shimcha obyekt sifatida mazkur qilmishda himoya qilinadi.

Jinoyat kodeksining 17-moddasiga ko'ra, jinoyat sodir etilgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs mazkur jinoyatning subyekt sifatida javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat Kodeksining 198-moddasi 3-qismdan iborat bo'lib, obyektiv va subyektiv tomon belgilari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Jinoyat Kodeksi 198-moddasi 1-qismi subyektiv tomondan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilsa, 2- va 3-qismida nazarda tutilgan holatlar qasddan sodir etiladi.

Obyektiv tomondan 1-qismda nazarda tutilgan holat olovga ehtiyotsizlik bilan muomala qilishda ifodalanadi. Inson tomonidan sodir etiladigan har qanday ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikdan ma'lum darajada zararli oqibat kelib chiqadi yoki zararli oqibat kelib chiqish mumkin bo'ladi. Bunday zararli oqibat jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga yetkazilsa, oqibat jinoyat-huquqiy oqibat hisoblanadi.⁵ Demak, moddiy tarkibli jinoyatlar uchun, kelib chiqqan moddiy oqibat zaruriy belgi hisoblanishi lozim. JK 198-modda har bir qismida moddiy oqibat kelib chiqsagina qilmish tugallangan hisoblanadi. Masalan, obyektiv tomondan sodir etiladigan harakat natijasida, ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lish⁶ kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Sababiy bog'lanish-ijtimoiy xavfli qilmish va uning natijasida kelib chiqqan oqibat o'rtasida obyektiv ravishda mavjud bo'lgan jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgisidir.⁷ Ko'p miqdorda zarar bu JK 8 bo'limida ko'rsatib o'tilganidek, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdor hisoblanadi. Og'ir oqibatlar tushunchasi jinoyat qonunchiligi normalarida aniq belgilab qo'yilmagan. Norma dispozitsiyasidan kelib chiqib olovga ehtiyotsiz munosabatda bo'lish natijasida ekinzorlarni umuman yo'q bo'lib ketishi, bir nechta mevali daraxtlarning batamom kuyib ketishi, keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelishini boshqa o'g'ri oqibat sifatida ko'rishimiz mumkin.

Obyektiv tomondan 2-qismda nazarda tutilgan holat o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni qonunga xilof ravishda kesishda namoyon bo'ladi. Daraxtlarni qonunniy asosda kesish tartib-taomillar va tegishlincha xabardor etish doirasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.10.2014 yildagi "Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida" gi 290-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizomda belgilab qo'yilgan va shu qaror talablari doirasida amalga oshirilishi zarur.

⁴ M.X. Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent 304-bet

⁵ Расулов О.Х. Совет жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Т: «Ўқитувчи» 1969,189-бет

⁶ M.X. Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent 306-bet

⁷ Мухаммаджон УСМОНАЛИЕВ. ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ (Умумий қисм). Тошкент-2010
«Янги асп авлоди» 168.

Ekinzorlarni, oʻrmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa oʻsimliklarni qasddan shikastlantirish, payhon qilish, nobud qilish bu qilmishni kvalifikatsiyasi uchun zaruriy belgi boʻlib, Payhon qilish deganda, ekinzorni bosib tashlash, haydash, suv va boshqa suyuqlik bilan bostirish tushuniladi va ekinzor, oʻrmon va boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qisman zarar yetkazish, yaʼni muayyan sarf-xarajatlar va kuch ishlatib ularning dastlabki holatini tiklash imkoniyati boʻlgan hollar. Ekinzor, oʻrmon va boshqa dov-daraxtlarni nobud qilish bu ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarning batamom yonib ketishi hisoblanadi.⁸ Demak, shikast yetkazish muayyan sarf-xarajatlar va kuch ishlatib ularning dastlabki holatini tiklash imkoniyati boʻlgan vaziyatlar hisoblansa, nobud qilishda uni tiklash imkoni yoʻq va albatta bu harakatlar koʻp miqdorda zarar yoki boshqa ogʻir oqibatlar keltirib chiqarishi kerak.

Xulosa oʻrnida aytib oʻtishimiz mumkinki, atrof-muhitning inson mavjudligidagi alohida ahamiyati, shuningdek, uning yashash tarzi, oʻziga xos jihatlarini hisobga olib, yildan-yilga yashil makon kamayib ketib, zararli oqimlar yuzaga kelmoqda va shu sababdan birdek himoya qilish dasturulamal vazifa boʻlishi lozim. Bu borada atrof-tabiiy muhitni asrab avaylash davlatimizda ham konstitutsion tarzda himoya qilinishi va belgilangan tartib-qoidalarini buzish holatlari yuzasidan Jinoyat Kodeksining alohida moddalari belgilab qoʻyilganligi tahsinga sazovor jihat. Xususan, ekinzorlarni, oʻrmonlarni, daraxtlarni va boshqa oʻsimliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishning ham ijtimoiy xavflilik darajasi ortib borayotkanligi va insonlar tomondan bunday huquqbuzarlik tez-tez sodir etib borilayotganligi tufayli tayinlangan jazo choralari qatʼiyroq boʻlishi va Jinoyat Kodeksi 198-moddasi sanksiya qismi ogʻirlashtirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. M.X. Rustambayev. Oʻzbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent
4. Muhammadjon USMONALIEV. JINOYAT HUQUQI (Umumiy qism). Toshkent-2010 Yangi asr avlodi 168.
5. Rasulov O.X. Sovet jinoyat huquqi. Umumiy qism. T: «Oʻqituvchi» 1969
6. <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
7. <https://www.worldwildlife.org/threats/deforestation-and-forest-degradation>

⁸ M.X. Rustambayev. Oʻzbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent 307-bet